

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

Tolipova Ozoda Ikromovna

PhD Qo'qon universiteti v.b dotsenti

Raximov Yorqinjon Sharifjon o'g'li

Qo'qon Universiteti 1-bosqich magistranti

Qo'qon shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 32-sonli umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kundagi uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish, qo'yilgan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta'minlashda subyektlar faolligini ta'minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish va obyektiv baholash asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uning natijaviyligini ta'minlash boshqaruvning qator funktsiya va metodlaridan foydalanishni nazarda tutadi.*

Kalit so'zlar: *Uzluksiz ta'lim, pedagogik jarayon, boshqarish, faoliyat, innovatsion faoliyatni, metod, pedagog, nazorat qilish, ehtiyoj.*

Аннотация: *В статье организация педагогических процессов, организуемых и управляемых в современной системе непрерывного образования, осуществляется на научной основе, обеспечивая активность субъектов в достижении поставленных целей и обеспечении эффективности, организуя инновационную деятельность на основе координации, контроля и объективной оценки. Достижение и обеспечение ее эффективности своей деятельности предполагает использование ряда функций и методов управления.*

Ключевые слова: *Непрерывное образование, педагогический процесс, управление, деятельность, инновационная деятельность, метод, педагог, контроль, потребность.*

Annotation: *In the article, the organization of pedagogical processes organized and managed in today's continuous education system on a scientific basis, ensuring the activity of subjects in achieving the set goals and ensuring efficiency, organizing innovative activities based on the coordination, control and objective evaluation of their activities achieving and ensuring its effectiveness implies the use of a number of functions and methods of management.*

Key words: *Continuing education, pedagogical process, management, activity, innovative activity, method, pedagogue, control, need.*

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish hamda boshqarish bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, tashkil etish boshqarishga asos sifatida xizmat qiladi. Boshqaruv nazariyasida tashkil etish boshqaruvning asosiy funktsiyalaridan biri hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda pedagog xodimlar tomonidan bajariladigan ishlarning mazmun-mohiyati va

yo'nalishiga ko'ra boshqaruvning rejalashtirish va tashkil etish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- pedagogik jarayonlarni rejalashtirish;
- subyektlar (ta'lim oluvchilar) uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda vazifalar taqsimlash;
- subyektlar faoliyatini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash asosida rag'batlantirish.

Shuningdek, pedagog xodimlar tomonidan pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda faolligini ta'minlash va ta'lim olishga qiziqishini shakllantirishda motivlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Motivlashtirish bu ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o'quvchi faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida pedagogik jarayon subyektlari ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur hisoblanadi, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayonlarda motivlashtirish ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, subyektlarning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish orqali ularning faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Mavjud ehtiyojlarni o'rganish asosida o'quvchilar faolligini ta'minlashga va rivojlantirishga, ya'ni o'qish, o'rganish va bilim olishga yo'naltiruvchi motivlarni shakllantirish pedagogik jarayonlarda subyektlar faolligini ta'minlash va rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, shuningdek, dam olish, bilim olish, hunar o'rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi. Pedagogik jarayonlarda motivlashtirish jarayoni mavjud ehtiyojlarga qoniqish hosil qilish uchun, ya'ni ehtiyojlamning qondirilishi uchun maqsadni belgilash va unga erishish uchun harakat qilishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda ehtiyojning qondirilish darajasi o'quvchining muayyan faoliyatini holatini belgilaydi. Pedagogik jarayonlarda ko'zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsad va mavjud imkoniyatlarni ta'lim oluvchilar manfaati va ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish hamda ularning faoliyatini vaziyatlarga ko'ra moslashtirib va muvofiqlashtirib borishda muvofiqlashtirish funksiyasi amalga oshiriladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi ta'lim oluvchilarning boshlang'ich tushunchalari darajasi, qobiliyatlari, shaxsiy xislatlari, qiziqishlari, shuningdek, pedagogik jarayonlari vaziyatlarga ko'ra muvofiqlashtirishning murakkab tomonlarini o'rganish va shular asosida mazkur jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan omillarni aniqlash jarayonida ko'zlangan natijalarga erishishda nazorat funksiyasi pedagog xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Demak, uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda amalga oshiriladigan funksiyalarni shartli ravishda professional va ijtimoiy-psixologik funksiyalarga ajratish mumkin.

Pedagogik jarayonlarning subyektlari tomonidan o'z funksional vazifalarini (o'qitish va o'qish) bajarishi jarayonida professional funksiyalar amalga oshiriladi va mazkur jarayonda

pedagogik jarayon subyektlari hisoblangan o'qituvchilar bilan ta'lim oluvchilar hamda ta'lim oluvchilarning o'zlari o'zaro ma'lum bir belgilangan munosabatda bo'ladilar, bu munosabatlar tarbiyaviy munosabatlarning inson-inson munosabatlari shakli bo'lib, bunda ijtimoiy-psixologik funktsiya amalga oshiriladi. Axborotlar bilan ishlash mazkur funktsiyani amalga oshirish jarayonida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va

_ boshqarishda axborotlar bilan ishlash turli ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo'lib, subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo'llaniladi. Mazkur funktsiya subyektlar o'rtasidagi axborotlarning almashuvini ta'minlash vazifasini bajaradi. Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri axborotlar tizimi bo'lib, u pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo'nalishidagi barcha me'yoriy hujjatlarni, iqtisodiy-ijtimoiy, ilmiy- texnikaviy, huquqiy va tashkiliy yangiliklardan iborat axborotlar oqimini, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bunda axborotlarning yangiligi va ishonchliligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ulami o'rganish va ishonchliligini aniqlash jarayonida axborot- tahlil funktsiyasi amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda inobatga olinishi zarur bo'lgan omillar, subyektlarning individual psixologik xususiyatlari, tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari mazkur jarayonda ijodiy muhitni shakllantirish zaruriyatini belgilaydi.

Uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarda ijodiy muhitni shakllantirish subyektlarning erkin ishtirok etishi, mustaqil va erkin fikrlashi, o'z fikr va tashabbuslarini namoyon qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratilishini nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ozoda, Tolipova. "O'qituvchi faoliyatida muomila madaniyati va psixologiyasi." *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences* (2023): 398-406.
2. Tolipova, O. I., et al. "Bo'lajak o'qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda ta'lim faoliyatining ahamiyati." *Science and innovation in the education system* 2.12 (2023): 191- 194.
3. Ikromovna, Tolipova Ozoda. "Tactics of preparing students for pedagogical activity." *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor:7.429 12.06 (2023): 135-140.
4. Ikromovna, Tolipova Ozoda. "Theoretical foundations of teaching psychology in students of higher educational institutions."
5. OI, Tolipova. "Approaches to the study and understanding of creativity today." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1319-1321

6. Parpiyev Odiljon Olimovich. (2023). Rivojlanish vositasi sifatida triz texnologiyasining xususiyatlari . Образование наука и инновационные идеи в мире, 24(1), 17–20. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/7877>
7. Parpiyev, O., & Pozilov, H. (2023, June). Boshlang'ich ta'limda topishmoqlarning ahamiyati. In Конференция: Союз Науки и Образования (Vol. 5, No. 2, pp. 63-74).
8. Mannonova Muxarramabonu, & Odiljon Parpiyev. (2023). Audiolingval metodning afzalliklari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 1(1), 882–887. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.749>
9. Tolipova, O. I. (2022). DEVELOPING STUDENT CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL PROBLEM. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 58-61.
10. Ikromovna, T. O. (2022). Formation of creativity characteristics in students of higher education organization based on CTEAM educational technology design method. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 348-351.
11. Ikromovna, T. O. (2022). ORGANIZATION OF THE PROCESS OF DEVELOPING CREATIVITY IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 103-107.
12. Ikromovna, T. O. (2022). SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF BACHELOR STUDENTS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 17-20.
13. Ikromovna, T. O. (2022). IMPROVING COMPETENCY APPROACH TO STUDENTS. Ta'lim fidoyilari, 25(5), 98-100.
14. Tolipova, O. I., & Rakhimov, B. (2023). Types of Adolescent Character and Personality Accent. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 10).
15. OI, T. (2022). SOCIALIZATION OF PEOPLE AND SOCIETY IS A PEDAGOGICAL PROBLEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1322-1325.
16. Yuldasheva, M., Nurmatova, M., & Tolipova, O. ADVANTAGES OF USING GAME TECHNOLOGIES IN EDUCATION.